

O'zbekiston Prezidenti XRX Raisi Si Szinpinni lavozimiga qayta saylangani bilan tabrikladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinga Butunxitoy xalq vakillari yig'ining 14-chaqiriq birinchi sessiyasida oliy lavozimga qayta saylangani munosabati bilan tabrik yo'lladi.

Davlatimiz rahbarining qutlovida so'nggi yillarda Xitoy Si Szinpin rahbarligida barcha soha va tarmoqlarda misli ko'rilmagan natijalarga erishgani, ilmiy-texnologik, innovatsion va ijtimoiy rivojlanishda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgani alohida ta'kidlangan.

Xalqlarimiz o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik rishtalari, siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalarni mutlaqo yangi - har tomonlama strategik sheriklik darajasiga ko'tarishga XRX Raisining qo'shgan ulkan shaxsiy hissasi qayd etilgan.

Birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan davlatlarimizning ko'p qirrali hamkorligi bundan keyin ham xalqlarimiz manfaatlarini yo'lida jadal rivojlanib borishiga ishonch bildirilgan.

O'zbekiston Prezidenti Si Szinpinga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, mas'uliyatli davlatchilik faoliyatida ulkan zafarlar, do'st Xitoy xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, bardavom ravnaq va farovonlik tiladi.

Manba